

## О`ЗБЕКISTONDA SIYOSIY-IJTIMOIIY HAYOT . IMKONIYATLAR PALLASI

*Ilmiy ish rahbari – Yuldasheva F.F*

*O`zDJTU katta o`qituvchisi*

*U.D.Amirova – O`zDJTU*

*2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Maqolada O`zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar, avlodlar uchun yaratilgan shart-sharoitlar haqida so`z boradi. Ijtimoiy-siyosiy hayotimizdagi o`zgarishlar haqidagi tushunchalar ham yoritilgan

**Аннотация:** В статье описываются реформы, проводимые в Узбекистане, и условия, созданные для поколений. Также освещены понятия об изменениях в нашей общественной и политической жизни.

**Annotation:** The article describes the reforms implemented in Uzbekistan and the conditions created generations. Concepts about changes in our social and political life are also covered

**Tayanch so`zlar:** tafakkur, harakatlar strategiasi, davlat va jamiyat, ta`lim, yosh avlod, sharoitlar, siyosat, huquq

**Ключевые слова:** умонастроения, стратегия, действий, права, политика, образования, Государство и общество

**Keywords:** mentality, action strategy, state and society, education, generation, conditions, politics, rights

Insoniyat paydo bo`libdiki, erkka va farovonlikka intilib yashaydi. Taraqqiy etgan yurt , totuv xalq farovonlik garovidir. Mamlakatimiz bugun milliy taraqqiyotning yangi davriga qadam qo`ymoqda. Atrofimizda turli sohadagi texnologik, demokratik, ijtimoiy- siyosiy o`shishlar kuzatilmoqda. Umuman olganda mustaqil O`zbekiston rivojlanishning yuqori boshqichlarida.

Davlatni rivojlantirish uchun muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017 yilda yaratilgan ‘Harakatlar strategiasi’ da amalga oshirilgan o`zgarishlarning ilmiy – nazariy asoslari va ustuvor yo`nalishlari aniq belgilab olindi. Bugungi kunda siyosiy- ijtimoiy hayotimizning turli soha va tarmoqlarida yuz berayotgan o`zgarishlarni ko`rib , o`tgan besh yil davomida harakatlar strategiasi qogozdagi hujjatdan amaldagi voqelikka ko`chganiga guvoh bo`lamiz. Agar ortga nazar tashlaydigan bo`lsak Mustaqillikka erishgan ondan bugungi kunga qadar juda ko`p yutuqlarga erishdik, mard va oliyjanob xalqimizning bukilmas irodasi va ulkan salohiyati bilan katta marralar zabt etildi. Mamlakatimiz doim o`z boy tarixiy hotiralarini, merosini o`rganish va ularni avlodlarga saqlashga katta e`tibor qaratgan.

O'zbekiston kundan – kunga katta taraqqiyot va farovonlikka erishishiga aslo shubha qilmaymiz. Davlat va jamiyat bir birini uzviy ravishta to'ldirib turadi, shuning uchun ham yurtimizda jamiyat rivoji , yorqin istiqboli uchun betinim harakatlar amalga oshirilmoqda. Hamda jamiyat insonlarining haq- huquqlari to'laqonli tarzda belgilab berilgan. O'zbekiston Respublikasi Konsitutsiasining II bo'limi to'liq inson huquqlari va erkinliklariga bag'ishlanganligi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Insonlarning jamiyatda o'z o'rniga va huquqlariga ega bo'lishi esa barchani benihoya quvontiradi.

Ma'lumki davlatimiz siyosati har tomonlama biz yoshlarni qo'llab quvvatlashga qaratilgan. Hurmatli prezidentimiz bejizga " Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat." jumllarini tilga keltirmagan.[1, 12-bet]

Mamlakatda yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga zarur imkoniyatlarni yaratib berish borasida mustahkam huquqiy baza yaratilgan. O'z navbatida, O'zbekistondagi barcha o'zgarishlarning negizi hisoblangan ta'limtarbiya tizimida ham tub islohotlar olib borilmoqda. Bunga viloyatlarda turli ta'lim muassasalari, ilmiy va ijodiy markazlarning tashkil qilinayotganligi yaqqol misol bo'la oladi . Yoshlarimiz maktablarda , o'quv muassasalarida bepul ta'lim oladilar. Hamda belgilangan yoshga yetgan shaxslar tadbirkorlik bilan shugullanishi mumkun, ular albatta davlat tomonidan qo'llab quvatlanadi.

Bugungi kunda yurtimizda 15 dan ortiq rivojlangan davlatlarning nufuzli universitetlari filiallari ochildi. Yoshlar u yerda o'zgacha bilim va ko'nikmalar hosil qila oladilar. So'ngi yillarda Oliy o'quv yurtlarida qabul kvotalari sezilarli darajada kengaytirildi, bu esa yoshlarning yanada yaxshiroq harakat qilishga, bilimli talabalarning yildan- yilga ortishiga turtki bo'ladi. Hamda kechki va sirtqi oliy ta'lim shakillari tiklandi.

Nafaqat ta'lim sohasida, balki o'quv yurtlarida o'qimaydigan yoshlarga ham keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Masalan qizlar turli tikuv sexlarida ishlashlari, kashtachilik, hunarmandlik bilan shugullanishlari mumkun.

Xulosa qilib aytganda yosh yigit-qizlarimiz uchun yaratilayotgan keng ko'lamdagi imkoniyat va shart-sharoitlar, ularning o'qib-o'rganishlari, qizg'in faoliyat ko'rsatishlari uchun qaratilayotgan e'tibor va g'amxo'rlik nafaqat yurtdoshlarimiz, balki dunyo hamjamiyatini ham o'ziga jalb etmoqtadir. Bu esa o'z navbatida yoshlarimizning jamiyatda ijtimoiy faolligini oshirishga, vatanimiz kelajagi uchun bor-kuch g'ayratlarini safarbar etgan holda o'qib izlanishi, faoliyat yuritish uchun yanada ruhlantiradi. Biz o'sib borayotgan yosh avlod bizga yaratilayotgan barcha imkoniyat va shart- sharoitlardan unumli foydalanishimiz lozim. Bor bilimimiz va shijoatimizdan foydalanib yurt ravnaqiga hissa qo'shish bu bizning burchimizdir. Albatta bu porloq kelajakga poydevor bo'la oladi, bu gapni Vladislav Grzegorchikning "Faqat yoshlar

sarflaganidan ko'proq oladi"jumalari bilan to'ldiramiz.[2,34-bet] Bu orqali Vatanimizning nurli kelajagiga o'z hissamizni qo'sha olamiz. "Yoshlik va o'rta yoshni vatanga, keksalikni esa o'zimizga bag'ishlashimiz kerak"- Kichik Pliniy [2, 48-bet]. Albatta kelajak farovon bo'lsa bizdan keyingi yosh avlod ham chiroyli va mukammal hayot tarziga ega bo'ladi. Zero " O'zbekiston kelajagi yoshlar qo'lida"

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1 Faxriddin Musayev."Tafakkur jurnal". 'Sharq' matbaa 2019 // 22-23bet
- 2 G.M.Tansikbayeva, V.A. Konstetskiy// **Konsitutsiaviy huquq asoslari** . 'Sharq' matbaa 2019// 32-bet

#### INTERNET SAYTLARI:

- 1 <https://yuz.uz/uz/news>
- 2 muegn.ru